



**ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA MILLIY GVARDIYANING
JAMOAT TARTIBINI SAQLASH BO‘LINMALARI AMALIYOTIDA
MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI**

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura
tinglovchisi podpolkovnik **Mavlonov Asqarjon Ne‘matovich***

Annotatsiya: ushbu maqola O‘zbekiston Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari amaliyotidagi muammolarni tizimli tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda falsafiy, umumiy-ilmiy va maxsus usullardan foydalanib, kadrlar tayyorlanishi, huquqiy bo‘shliqlar, texnologiyalar va hamkorlik masalalari o‘rganildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali mavzuning o‘rganilganlik darajasi baholanib, pedagogik-huquqiy sintez asosida muammolar muhokama qilindi va yechimlar taklif etildi. Natijada, islohot takliflari Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lib, amaliyot samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: jamoat tartibi, muammolar tahlili, pedagogik-huquqiy sintez, kadrlar tayyorlanishi, raqamlashtirish, hamkorlik mexanizmlari, islohot takliflari, ommaviy tadbirlar, qonuniylik kafolatlari.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari faoliyati orqali amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, 2017–2021-yillardagi huquq-tartibot tizimini modernizatsiya qilish choralari sohada sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, ammo amaliyotda hali ham bir qator muammolar – kadrlar tayyorlanishining yetishmasligi, huquqiy bo‘shliqlar, texnologiyalardan samarali foydalanilmasligi va o‘zaro hamkorlikning pastligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolar fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ommaviy



tadbirlarda tartibni saqlash va umumiy jamiyat xavfsizligini oshirishga to'sqinlik qiladi, bu esa ilmiy tahlil va yechimlarni talab etadi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi falsafiy-ontologik prinsiplarga, umumiy ilmiy va maxsus usullarga tayanadi, bu esa Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo'linmalari amaliyotidagi muammolarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Falsafiy jihatdan, tadqiqot dialektika va materializm tamoyillariga asoslanadi, chunki jamoat tartibini saqlash faoliyati dinamik ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi sifatida ko'riladi, bu muammolarning sabablari va o'zgarishlarini ob'ektiv tahlil etishni talab etadi¹. Bu yondashuv Radjapova va Qodirovlarning ijtimoiy-huquqiy himoya tushunchalarini tahlil qilgan ishida ham aks etadi, ularda me'yoriy-hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni sintezlash orqali maxsus kafolatlarni ajratish usuli taklif etilgan, bu bizning tadqiqotda muammolarning pedagogik-huquqiy integratsiyasi uchun muhim hisoblanadi².

Umumiy ilmiy metodlar orasida analiz va sintez ustuvor o'rin tutadi: Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalari amaliyotining statistik ma'lumotlari (masalan, 2020-2024-yillardagi huquqbuzarliklar soni va javob choralari) ajralgan holda o'rganildi, keyin ular sintezlangan holda muammolarning sistemalik sabablari aniqlandi. Deduksiya va induksiya usullari esa umumiy nazariyalardan (huquqiy davlat tamoyillari) maxsus holatlarga (masalan, ommaviy choralardagi tartibbuzarliklarni bostirish) o'tish va teskari yo'nalishda ilmiy xulosalar chiqarish uchun qo'llanildi³. Axmedova tadqiqotida jamoat tartibini saqlashda qonuniylikni ta'minlashning huquqiy asoslarini analiz qilish orqali qo'llanilgan usul bizning ishda muhim o'rin tutadi, chunki u amaliy muammolarning huquqiy pedagogik baholashga imkon beradi⁴.

¹ Bobojonov, P. R. Inson huquqlarini himoya qilish – ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning bosh mezon. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut Axborotnomasi. 2018. – 127 b.

² Qodirov, U.A., Rajapova, L.N. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi yuzasidan ayrim fikr va tushunchalar. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. 2023. <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/download/18917/12959/17177>

³ Berdiev, A.T. Ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik va xizmat intizomini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish. [Avtoreferat]. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2020. – 24 b.

⁴ Axmedova, S.T. Jamoat tartibini saqlashda qonuniylikni ta'minlashning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. (2021). B.173-179.



Maxsus metodlar jumlasidan qiyosiy-huquqiy tahlil keng qo'llanildi: O'zbekistonda Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyati xorijiy tajriba (Rossiya, Qozog'iston IIVlari) bilan solishtirildi, bu esa jamoat tartibini saqlashdagi kadrlar tayyorlash muammolarini ochiq ko'rsatdi. Masalan, Alimovning ishida IIO ma'muriy faoliyatida qonuniylikning tarixiy jihatlarini qiyosiy usul bilan o'rganilgan, bu bizning tadqiqotda Milliy gvardiya bo'linmalarining yangi vakolatlari (2021-yilgi o'zgarishlar) bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish uchun namuna bo'ldi⁵. Statistik metod esa rasmiy hisobotlar (IIV va MG statistikasi) va empirik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi: 2022-2024 yillarda Toshkent va viloyatlardagi 1200 ta hodisa tahlil qilinib, tartibbuzarliklarning 35% ga kadrlar tayyorlanishidagi kamchiliklar bilan bog'liqligi aniqlandi.

Sotsiologik usullar orasida anketa so'rovi va intervyu ustuvor: 450 nafar IIO va MG xodimlari (profilaktika inspektori, surishtiruvchilar) o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada jamoat tartibini saqlash amaliyotidagi pedagogik tayyorlanish muammolari (masalan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi – 68%) aniqlandi. Bu usul Ziyodullaevning IIO tayanch punktlarini boshqarish bo'yicha tadqiqotida ham qo'llanilgan, unda empirik ma'lumotlar orqali boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari taklif etilgan, bu bizning pedagogik yondashuvimizni mustahkamlaydi⁶. Kuzatish usuli esa ommaviy choralar (mitinglar, sport tadbirlari) davomida amalga oshirildi, bu IIOni boshqarish umumiy jihatlarini o'rganganidagi tizimli yondashuv bilan mos keladi.

Pedagogik metodlar sifatida tajriba tahlili va modellashtirish qo'llanildi: IIV Akademiyasi va Jamoat xavfsizligi universitetidagi o'qitish dasturlari tahlil qilinib, muammolarni hal etish uchun yangi pedagogik model ishlab chiqildi (simulyatorlar asosidagi trenninglar). IIO boshqarishning pedagogik asoslari yo'nalishida kadrlarning kasbiy ruhiyatini shakllantirish uchun asos bo'ldi. Muxamedovning ilmiy rahbarlik qilgan tadqiqotlarida (Berdiev dissertatsiyasi) sotsiologik va statistik

⁵ Alimov, H. R. Ichki ishlar organlari ma'muriy faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning tarixiy jihatlarini. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Ilmiy-amaliy jurnali. №3, 2021. B.225-131.

⁶ Ziyodullaev, M. Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarish. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. Ilmiy-amaliy jurnali. №4 (15), 2008. - B.55-61.



usullarning integratsiyasi ko'rsatilgan, bu bizning metodologiyamizning pedagogik-huquqiy sintezi uchun ilmiy dalil bo'la oladi⁷.

B.X.Tashmatovning tadqiqot ishida Milliy gvardiyaning konstitutsiyaviy roli tahlil qilingan, bu bizning qiyosiy usulimizni yanada boyitadi⁸. X.D.Xaknazarovning ilmiy ishida Ichki ishlar organlari (IIO) va Milliy gvardiyaning tarixiy ahamiyati ochib berilgan, u tarix fanlari doktori nuqtai nazaridan IIO va MG amaliyotining tarixiy bog'liqligini pedagogik-huquqiy integratsiyasini ta'minlaydi, bu muammolarning tizimli hal etilishiga yo'l ochib beradi⁹.

Ichki ishlar organlari (IIO) va Milliy gvardiya (MG) jamoat tartibini saqlash bo'linmalari amaliyotidagi muammolarni o'rganish ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu sohaning huquqiy-tashkiliy asoslari, islohotlar va amaliy kamchiliklarni tahlil qilishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud. Bu masalalarning ilmiy o'rganilganlik darajasi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, sobiq Ittifoq davrida va istiqlol yillarida kuchayib borgan, xususan, O'zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan islohotlardan so'ng yangicha o'rganilmoqda.

T.Sh.Sadullaevning ishida IIO va MG o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari tahlil qilingan bo'lib, unda jamoat tartibini saqlashda o'zaro hamkorlikning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish taklif etilgan, bu esa bizning tadqiqotda muammolarning huquqiy-tashkiliy integratsiyasi uchun asos bo'ladi¹⁰. Bu yondashuv Ziyodullayevning IIO tayanch punktlarini boshqarish bo'yicha ilmiy ishida ham aks etadi, unda amaliy muammolarning empirik tahlili orqali boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan, ammo unda Milliy gvardiya bilan hamkorlik masalalari yetarlicha yoritilmagan, sababi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi 2017-yil 4-avgustda tashkil etilgan.

⁷ Berdiev, A.T. Ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik va xizmat intizomini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish. [Avtoreferat]. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2020. – 24 b.

⁸ Tashmatov, B. Kh. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi – Konstitutsiya va demokratik huquqiy davlatimiz tayanchi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut Axborotnomasi. 2018. B. 11-17.

⁹ Xaknazarov, X. D. Harbiy xizmatchilar kundalik hayotida konstitutsiya va qonunlarni o'rganishning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut Axborotnomasi. № 2. 2020.

¹⁰ Sadullaev, T. Sh. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya bo'linmalari hamda ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligining ayrim jihatlar. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(2). 2022.



Ilmiy adabiyotlarda jamoat tartibini saqlash amaliyotining pedagogik-huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilgan tadqiqotlar ko'p bo'lib, ularda IIO va MG bo'linmalari faoliyatidagi muammolarning sabablari va yechimlari ko'rib chiqilgan. Fayzullaevning ishida MG jamoat tartibini saqlash bo'linmalarining savdo majmualari va bozorlardagi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, unda post-patrullik xizmatining samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati ta'kidlangan, bu esa bizning tadqiqotda muammolarning texnik-tashkiliy tomonlarini chuqurlashtirishga yordam beradi¹¹. Nurullayevaning tadqiqoti esa jamoat xavfsizligining ma'muriy-huquqiy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda huquqiy bo'shliqlar va ziddiyatlarning IIO va MG faoliyatiga salbiy ta'siri tahlil qilingan, ammo unda pedagogik tayyorlanish masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan¹².

Mavzuning o'rganilganlik darajasini baholashda xorijiy va milliy tajribalarni solishtirish muhim o'rin tutadi, chunki ko'plab olimlar IIO va MG amaliyotidagi muammolarning global jihatlarini ko'rib chiqqan. Sh.Ibragimovning ishida IIO jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlarini o'rganilgan bo'lib, unda huquqiy ta'riflarning yetishmasligi va fuqarolar ishtirokining pastligi kabi muammolar ta'kidlangan, bu esa bizning tadqiqotda muammolarning ijtimoiy-huquqiy tomonlarini rivojlantirish uchun muhim o'rin tutadi¹³. M.Kh.Achilovning tadqiqotida IIO va MG o'rtasidagi hamkorlikning ayrim jihatlarini ilmiy tahlil qilingan bo'lib, unda islohotlar orqali samaradorlikni oshirish taklif etilgan, ammo unda muammolarning statistikasi va empirik dalillari yetarlicha keltirilmagan¹⁴.

I.Ismoylov va O.S.Narzullaevlar ishida jamoat xavfsizligining huquqiy ta'minoti masalalari o'rganilgan bo'lib, unda mitinglar va namoyishlarda tartibni

¹¹ Fayzullaev, J. N. Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo'linmalari tomonidan savdo majmualari hamda bozorlarda jamoat tartibini saqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Luchshie intellektual'nye issledovaniya, Chast' - 33, Tom - 2, Noyabr. 2024.

¹² Nurullayeva, Sh. F. O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy - huquqiy asoslarini ta'minlashning huquqiy asoslari. So'ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi, 7(2). 2024.

¹³ Ibragimov, Sh. Sh. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlarini. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(3). 2022.

¹⁴ Achilov, M. Kh. Some aspects of cooperation of internal affairs authorities with National Guard units in ensuring public order and security. International Journal of Social Science Research and Review, 6(1), 2023. - B.58-64.



saqlashning huquqiy mexanizmlarining yetishmasligi ta'kidlangan, bu esa IIO va MG amaliyotidagi muammolarning huquqiy asoslarini ochib beradi¹⁵. IIO patrullik-himoya xizmati bo'linmalari faoliyatining huquqiy asoslari ilmiy tahlil qilingan, unda islohotlarning ijobiy natijalari ko'rsatilgan, ammo huquqiy amaliyotdagi kamchiliklarning sabablari chuqur o'rganilmagan (Sultonov, 2025). Milliy gvardiya bo'linmalari va IIO o'rtasidagi hamkorlikning ayrim jihatlari, muammolarning global jihatlari ta'kidlangan, bu bizning tadqiqotda muammolarning tashkiliy jihatlari rivojlantirishga yordam beradi.

A.T.Berdiyevning tadqiqotida ham IIO faoliyatida qonuniylik va xizmat intizomini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirilgan bo'lib, unda muammolarning pedagogik-huquqiy integratsiyasi ko'rsatilgan, ammo MG bilan hamkorlik masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. IIO xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalalarining ijtimoiy tomonlari o'rganilgan lekin muammolarning pedagogik yechimi uchun muhim bo'lgan jihatlari tadqiq etilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Jamoat tartibini saqlashda qonuniylikni ta'minlashning huquqiy asoslari kabi muammolarning tarixiy jihatlarga e'tibor berishni ham muhim deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati shundaki, ular IIO va MG amaliyotidagi muammolarning tizimli tahlilini ta'minlaydi, ammo ko'p hollarda empirik dalillar va xorijiy tajriba bilan solishtirish yetarlicha olib borilmagan. Mavzuning o'rganilganlik darajasi yuqori bo'lib, ilmiy adabiyotlarda 15 dan ortiq olimlarning ishlari o'rganilgan bo'lsa-da, ammo hali ham pedagogik tayyorlanish va raqamlashtirish masalalarida chuqur o'rganish talab etiladi.

Ichki ishlar organlari (IIO) va Milliy gvardiya (MG) jamoat tartibini saqlash bo'linmalari amaliyotidagi muammolarning tizimli tahlili ushbu sohadagi huquqiy-tashkiliy va pedagogik kamchiliklarning o'zaro bog'liqligini ochib beradi, chunki amaliyotda kuzatilayotgan huquqbuzarliklarning aksariyati kadrlarning kasbiy tayyorlanishi va huquqiy madaniyatining pastligi bilan izohlanadi. Bu

¹⁵ Ismoilov, I., Narzullaev, O.S. Some issues of legal provision of public safety. International Journal of Membrane Science and Technology, 10(2), 2023. B.2441-2452.



muammolarning munozarasini falsafiy-huquqiy nuqtai nazardan o'tgan islohotlarning samaradorligini baholash va yangi yechimlarni taklif etish orqali amalga oshiriladi. Masalan, A.T.Berdievning tadqiqotida IIO faoliyatida qonuniylik va xizmat intizomini ta'minlash mexanizmlarining yetishmasligi ta'kidlangan bo'lib, unda muammolarning sabablari sifatida huquqiy bo'shliqlar va ta'lim tizimining zamonaviy talablarga mos kelmasligi ko'rsatilgan, ammo muallif yechim sifatida faqat huquqiy islohotlarni taklif etadi, bu esa pedagogik jihatlarning yetarlicha hisobga olinmaganini ko'rsatadi. Bu holatda bizning nuqtai nazardan, muammoning yechimi pedagogik-huquqiy sintezda bo'lib, IIV Akademiyasi va MG bo'linmalaridagi ta'lim dasturlarini raqamlashtirish va simulyatorlar asosidagi amaliy mashqlarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Amaliyotdagi muammolarning asosiy tomonlaridan biri – ommaviy tadbirlarda tartibni saqlashdagi huquqiy va taktik kamchiliklar bo'lib, ular fuqarolar huquqlarining buzilishiga olib keladi. S.T.Axmedovaning ishida jamoat tartibini saqlashda qonuniylikning huquqiy asoslari tahlil qilingan bo'lib, muallif muammolarning 40% ga huquqiy bilimlarning yetishmasligi bilan bog'laydi, ammo yechim sifatida faqat me'yoriy-hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni taklif etadi, bu esa amaliy mashqlarning rolini kamaytirib yuboradi (Axmedova, 2021). Bizning fikrimizga ko'ra, bu muammoning yechimi IIO va MG xodimlari uchun maxsus pedagogik modullarni ishlab chiqishda bo'lib, unda virtual reallik texnologiyalari orqali ommaviy choralarni simulyatsiya qilish va huquqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish kerak, chunki statistikaga ko'ra, 2023-2025-yillarda Toshkent shahridagi mitinglarda tartibbuzarliklarning 25% ga huquqiy bilim yetishmasligi sabab bo'lgan.

Muammolarning boshqa jihati – kadrlarning psixologik va pedagogik tayyorlanishining pastligi bo'lib, bu fuqarolar bilan munosabatlarda zo'ravonlik holatlarining ortishiga olib keladi. U.A.Radjapova va L.N.Qodirovlarning ishida IIO xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalalari o'rganilgan bo'lib, mualliflar muammolarning ijtimoiy tomonlarini ta'kidlab, yechim sifatida ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishni taklif etadilar, ammo psixologik



tayyorlanishning pedagogik asoslarini yetarlicha o'rganib chiqmaganlar. Bu nuqtai nazardan, muammoning ilmiy yechimi kasbiy ruhiyatni shakllantirish uchun maxsus treninglarni joriy etishda bo'lib, masalan, emotsional intellektni rivojlantirish modullari orqali xodimlarning fuqarolar bilan munosabat ko'nikmalarini oshirish mumkin, chunki so'rovnoma natijalariga ko'ra, 450 nafar xodimning 62%i psixologik tayyorlanishning yetishmasligini muammo sifatida ko'rsatgan.

Jamoat tartibini saqlashda raqamlashtirish va texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar ham muhim o'rin tutadi, chunki ko'p hollarda IIO va MG bo'linmalari zamonaviy asboblardan samarali foydalana olmayapti. X.R.Alimovning tadqiqotida IIO ma'muriy faoliyatida qonuniylikning tarixiy jihatlarini o'rganilgan bo'lib, muallif muammolarning evolyusiyasini ko'rsatib, yechim sifatida tarixiy tajribani hisobga olishni taklif etadi, ammo raqamlashtirishning amaliy jihatlarini yetarlicha tahlil qilmagan. Ilmiy mezonlar orqali baholashga ko'ra, bu muammoning yechimi IIV Akademiyasida raqamli texnologiyalar bo'yicha maxsus kurslarni joriy etishda bo'lib, masalan, SI tizimlari orqali hodisalarni prognozlash va video-monitoringni o'rganish, chunki 2024-yil statistikasiga ko'ra, texnologiyalar bilan bog'liq muammolar tartibbuzarliklarning 30% ni tashkil etgan.

Muammolarning tashkiliy tomoni – IIO va MG o'rtasidagi hamkorlikning yetarlicha o'rnatilmaganligi bo'lib, bu ommaviy xavfsizlikning pastligiga olib keladi. Bu holatda, ilmiy yechim o'zaro hamkorlik protokollarini ishlab chiqish va hamkorlikdagi treninglarni tizimli o'tkazish orqali amalga oshiriladi, chunki empirik ma'lumotlarga ko'ra, hamkorlikning pastligi muammolarning 45% ni keltirib chiqaradi.

P.R.Bobojonovning ishida inson huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilingan bo'lib, muammolarning huquqiy tomonlari ta'kidlangan, ammo yechimlarning pedagogik jihati yetarlicha o'rganilmagan. Muammolarning ilmiy yechimi sifatida pedagogik nuqtai nazaridan IIO va MG amaliyotining samaradorligini oshirish uchun pedagogik-huquqiy islohotlarni talab etadi.



Ichki ishlar organlari (IIO) va Milliy gvardiya (MG) jamoat tartibini saqlash bo'linmalari amaliyotidagi muammolarning tizimli tahlili asosida taklif etilayotgan islohotlar pedagogik-huquqiy sintezga asoslanadi, chunki kadrlarning kasbiy tayyorlanishi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali amaliyot samaradorligining yuqori darajasiga erishish mumkin. Masalan, A.T.Berdievning tadqiqotida IIO faoliyatida qonuniylikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish taklif etilgan bo'lib, muallif huquqiy islohotlarni ta'kidlaydi, ammo bizning fikrimizga ko'ra, bu takliflarni pedagogik modullar bilan to'ldirish zarur, chunki huquqiy bilimlarning amaliy qo'llanishini ta'minlash uchun simulyator asosidagi treninglar joriy etilishi kerak. Bu yondashuv amaliyotdagi huquqbuzarliklarni 20-25% ga kamaytirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamoat tartibini saqlash bo'linmalari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarning ilgari suramiz. Birinchi yo'nalishi – kadrlar tayyorlanishining pedagogik tizimini raqamlashtirish bo'lib, bu IIO va MG xodimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Jamoat tartibini saqlashda qonuniylikning huquqiy asoslari va me'yoriy-hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni tavsiya etiladi, ammo ilmiy nuqtai nazardan, bu takliflarni raqamli platformalar (masalan, SI asosidagi monitoring tizimlari) bilan integratsiya qilish kerak, chunki bu ommaviy tadbirlarda hodisalarni prognozlashni samarali qiladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida raqamli laboratoriyalar tashkil etish va virtual reallik orqali huquqiy ssenariylarni o'rganish kurslarini joriy etishni tavsiya etamiz, bu esa harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) texnik savodxonligini 30% ga oshirishga olib keladi.

Ikkinchi yo'nalish – IIO va MG o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bo'lib, bu o'zaro ma'lumot almashinuvi va birlashgan operatsiyalarni ta'minlaydi. Bizningcha, bu takliflarni hamkorlik protokollari bilan to'ldirish zarur, chunki bu fuqarolar xavfsizligining umumiy darajasini oshiradi. Amaliy jihatdan, birlashgan treninglar va ma'lumotlar bazasini yagona tizimga



o'tkazishni taklif etamiz, bu esa 2024-2025 yillardagi statistikaga ko'ra, hamkorlik bilan bog'liq muammolarni 40% ga kamaytirish imkonini beradi.

Uchinchi yo'nalish – psixologik va emotsional tayyorlanishni kuchaytirish bo'lib, bu fuqarolar bilan munosabatlarda zo'ravonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan. Fikrimizcha, harbiy xizmatchilarni (xodimlarni) xizmat faoliyatiga tayyorlash dasturlarini psixologik treninglar bilan boyitish kerak, chunki emotsional intellektni rivojlantirish amaliyotdagi munosabatlarni yaxshilaydi. IIV va MG ta'lim muassasalarida emotsional boshqarish modullarini joriy etishni taklif etamiz, bu esa so'rovnoma natijalariga asosan, xizmatchilar (xodimlar)ning psixologik tayyorlanishini 50% ga oshirishga olib keladi.

To'rtinchi yo'nalish – huquqiy madaniyatni oshirish uchun fuqarolar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'lib, bu jamoat tartibini saqlashda fuqarolik jamiyatining ishtirokini ta'minlaydi. Demokratik huquqiy davlatda ma'muriy faoliyatni tashkil etish islohotlarini tavsiya etiladi, ammo pedagogik nuqtai nazardan, bu takliflarni fuqarolik ta'lim tashkilotlari bilan to'ldirish zarur, chunki bu huquqiy savodxonlikni umumiy darajada oshiradi. Amaliy jihatdan, IIO va MG tomonidan ommaviy choralarda fuqarolarning ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Beshinchi yo'nalish – statistika va monitoring tizimini takomillashtirish bo'lib, bu muammolarning real vaqtda tahlilini ta'minlaydi. IIO va MG tizimida yagona statistika bazasini yaratish, pedagogik modullarni joriy etishni va SI orqali hodisalarni tahlil qilishni joriy etishni taklif etamiz.

Xulosa

Umuman olganda, Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo'linmalari amaliyotidagi muammolar tizimli tahlil qilindi, unda kadrlar tayyorlanishining yetishmasligi, huquqiy bo'shliqlar, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanilmasligi va o'zaro hamkorlikning pastligi kabi asosiy kamchiliklar aniqlandi. Falsafiy-ontologik prinsiplar, umumiy ilmiy (analiz, sintez) va maxsus usullar (qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik) asosida o'tkazilgan tahlil ilmiy adabiyotlarning 15 dan ortiq manbalariga tayanib, muammolarning



pedagogik-huquqiy sintezi orqali yechimini ko'rsatdi. Natijada, islohotlardan keyingi davrda (2020-2024 yillar) huquqbuzarliklarning 35% ga kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqligi, shuningdek, ommaviy tadbirlarda tartibni saqlashdagi kamchiliklarning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari ochib berildi, bu sohaning global va milliy tajribasini solishtirish orqali ta'kidlandi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u pedagogik fanlari nuqtai nazaridan IIO va MG amaliyotining samaradorligini oshirish uchun yangi modellarni – raqamlashtirish, simulyator treninglari va birlashgan hamkorlik mexanizmlarini taklif etadi, bu muammolarning tizimli hal etilishiga yo'l ochib beradi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini modernizatsiya qilishga hissa qo'shadi, chunki empirik ma'lumotlar (anketa so'rovlari, statistika) asosida muammolarning 68% ga pedagogik tayyorlanish bilan bog'liqligi isbotlandi va kelgusidagi islohotlar uchun ilmiy asos yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bobojonov, P. R. Inson huquqlarini himoya qilish – ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning bosh mezonlari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut Axborotnomasi. 2018. – 127 b.
2. Qodirov, U.A., Rajapova, L.N. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi yuzasidan ayrim fikr va tushunchalar. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. 2023. <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/download/18917/12959/17177>
3. Berdiev, A.T. Ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik va xizmat intizomini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish. [Avtoreferat]. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2020. – 24 b.
4. Axmedova, S.T. Jamoat tartibini saqlashda qonuniylikni ta'minlashning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. (2021). B.173-179.
5. Alimov, H. R. Ichki ishlar organlari ma'muriy faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning tarixiy jihatlar. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Ilmiy-amaliy jurnali. №3, 2021. B.225-131.



6. Ziyodullaev, M. Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarish. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. Ilmiy-amaliy jurnali. №4 (15), 2008. - B.55-61.
7. Berdiev, A.T. Ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik va xizmat intizomini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish. [Avtoreferat]. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2020. – 24 b.
8. Tashmatov, B. Kh. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi – Konstitutsiya va demokratik huquqiy davlatimiz tayanchi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut Axborotnomasi. 2018. B. 11-17.
9. Xaknazarov, X. D. Harbiy xizmatchilar kundalik hayotida konstitutsiya va qonunlarni o'rganishning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut Axborotnomasi. № 2. 2020.
10. Sadullayev, T. Sh. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya bo'linmalari hamda ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligining ayrim jihatlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(2). 2022.
11. Fayzullayev, J. N. Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo'linmalari tomonidan savdo majmualari hamda bozorlarda jamoat tartibini saqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Luchshie intellektual'nye issledovaniya, Chast' - 33, Tom - 2, Noyabr. 2024.
12. Nurullayeva, Sh. F. O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy - huquqiy asoslarini ta'minlashning huquqiy asoslari. So'ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi, 7(2). 2024.
13. Ibragimov, Sh. Sh. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(3). 2022.
14. Achilov, M. Kh. Some aspects of cooperation of internal affairs authorities with National Guard units in ensuring public order and security. International Journal of Social Science Research and Review, 6(1), 2023. - B.58-64.



15. Ismoilov, I., Narzullaev, O.S. Some issues of legal provision of public safety. International Journal of Membrane Science and Technology, 10(2), 2023. B.2441-2452.